

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Huquq fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Tergov organlari faoliyatini zamonaviy raqamli kriminalistik texnik vositalar yordamida takomillashtirish istiqbollari 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - “E-tergov” elektron dasturi yaratiladi va tergovchi plansheti shakllantiriladi hamda unda quyidagilar o‘rin oladi: - sodir etilgan jinoyatlarni o‘z vaqtida aniqlash va samarali tergov qilish borasida prokuratura tergovchilari uchun maxsus raqamli usul va vositalardan keng foydalanishni o‘z ichiga oladigan elektron platforma yaratiladi; - tergovchilarning raqamli dalillar bilan ishlash texnikasini va ko‘nikmasini yanada rivojlantirish maqsadida masofadan turib protsessual qaror va bayonnomalarni tayyorlash, unga ilova qilinadigan raqamli dalillarni topish va yig‘ish, ma‘lumotlarni to‘g‘ri olish imkonini beruvchi dasturiy ta‘minot yaratiladi; - huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining raqamli dalillar bilan ishlash bo‘yicha bilimi va ko‘nikmasini yanada boyitishni ta‘minlash maqsadida protsessual va tergov harakatlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi “Sun‘iy intellekt” ko‘magidan foydalanish imkoniyati yaratiladi; - xorijiy mamlakatlar tajribasini chuqur tahlil qilgan holda ularning ilg‘or tajribasini raqamli dalillarni aniqlash, to‘plash, saqlash va xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga implementatsiya qilgan holda, tizimida mavjud bo‘lgan elektron platformalarni integratsiyasini o‘zida mujassam etgan yangi dasturiy ta‘minot joriy etiladi; - protsessual qarorlar, bayonnomalar, dalillar qo‘shish, fotosurat va audio yozuvlarni avtomatik tarzda saqlash imkonini beruvchi, GPS va vaqt shtampi bilan dalilning haqiqiyligini kafolatlovchi, xavfsiz internet tizimida ishlovchi markazlashgan faoliyat tashkil etiladi; - huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan amalga oshirilayotgan protsessual va tergov harakatlarida fuqarolarni ortiqcha ovoragarchiliksiz ishtirok etishlarini ta‘minlash, bu orqali esa xalqning ishonchini oshirishga erishish imkonini beruvchi biometrik autentifikatsiya tizimi shakllantiriladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma‘lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.